

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№2 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафазель Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Xodjayev Sobir KEKSALIK VA ERTA QARISH SOTSIOGERONTOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	4
2. To‘raxo‘jayeva Ra‘no DAVLAT XIZMATCHILARINI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI OLDINI OLISH MEHANIZMI SIFATIDA.....	11
3. Turdikulov Shuxrat SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING INSTITUTIONAL YONDASHUVI.....	19
4. Mo‘minov Zokirjon ZAMONAVIY SOTSIOLOGIYA:IJTIMOIIY O‘ZGARISHLARDA MOBILLIK.....	26
5. Xoliqnazarov Rashidjon DUNYO VA MDH DAVLATLARI IJTIMOIIY HAYOTIDA ELEKTRON HUJJAT AYLANISH TIZIMINING O‘RNI.....	33
6. Shokirov Shaxrizod HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK FIKRINI TA‘SIRI BO‘YICHA XALQARO TAJRIBA TAHLILI.....	41
7. Nurullayeva Umida XOTIN-QIZLARNI RAHBARLIK LAVOZIMLARIGA KO‘TARILISHI: TO‘SIQLAR VA IMKONIYATLAR.....	51
8. Nazarova Nilufar STRUCTURAL-FUNCTIONAL ANALYSIS OF ENSURING PROFESSIONAL COMPETITIVENESS OF YOUTH OF UZBEKISTAN.....	62
9. A‘zamova Kumush INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA REGULYATIV FUNKSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	72
10. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI KEYS METODI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNI TADQIQ ETISH: ASOSIIY TUSHUNCHA VA QONUNIYATLAR.....	78
11. Karimova Maftuna RIVOJLANGAN DAVLATLARNING UMUMIIY TA‘LIM MUASSALARIDA BOLALAR ZO‘RAVONLIGINI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA –TADBIRLAR.....	90
12. Butoyev Ilxom SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHIDA MA‘NAVIYAT TARBIYASINING TUTGAN O‘RNI.....	98
13. Bozorova O‘lmasxon YOSHLAR III RENESSANS MA'RIFIY STRATEGIYASINING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI.....	103

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Zokirjon Mo‘minov


Sotsiologiya fanlari bo‘yisha falsafa doktori (PhD)

Namangan davlat universiteti huzuridagi

TTRPMXQT va MO markazi direktori

e-mail: zokir_odiliy@mail.ru

ZAMONAVIY SOTSILOGIYA: IJTIMOY O‘ZGARISHLARDA MOBILLIK

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8399509>

ANNOTATSIYA

Zamonaviy sotsiologiyada mobillik mavzusi alohida o‘rin tutadi. Unga turli darajada bo‘lsa-da, sotsiologiyaning “o‘zagi” bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog‘langan. Ijtimoiy mobillik - ijtimoiy o‘zgarishlar, uning sabablari va oqibatlari haqidagi munozaralar markazida turadi. Ijtimoiy o‘zgarishlar, ularning tabiati qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, doimo ijtimoiy mobillikning yangi oqimlariga olib keladi.

Mobillikni zamonaviy jamiyatda odamlar hamda buyumlarning o‘zgarishi va ishtirok etish darajasi sifatida ko‘rib chiqsak, biz ijtimoiy mobillik tabiatan ehtimollik xususiyatiga ega ekanligini aniqladik. Demak, inson har bir boshlang‘ich holatidan yangi ko‘nikmalarni olishi mumkin. Shuning uchun odamni barcha muhim guruhlardagi faoliyatga oldindan tayyorlash mumkin emas; natijada u avvalo o‘zini qaysidir guruhda topadi va keyin unga moslasha boshlaydi (ijtimoiylashadi).

Kalit so‘zlar: mobillik, ijtimoiy, jamiyat, metafora, harakat, nazariya, amaliyot, metod, imkoniyat, o‘zgarish, ta‘rif, global, ko‘chmanchi, migrant.

Зокиржон Муминов

Доктор философии (PhD) по социологии

Директор Центра ПиПКРПССО при

Наманганского государственного университета

e-mail: zokir_odiliy@mail.ru

СОВРЕМЕННАЯ СОЦИОЛОГИЯ: МОБИЛЬНОСТЬ В СОЦИАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЯХ

АННОТАЦИЯ

Тема мобильности занимает особое место в современной социологии. Она связана и с другими гуманитарными науками, входящими междисциплинарно к «ядру» социологии, при этом, когда мы говорим о мобильности, связаны в разной степени. Социальная мобильность находится в центре дискуссий о социальных изменениях, их причинах и последствиях. Социальные изменения, независимо от их характера, всегда приводят к новым потокам социальной мобильности.

Рассматривая мобильность как степень изменения и участия людей и вещей в современном обществе, нами выявлено, что в современном обществе социальная мобильность

носит вероятностный характер - с каждой стартовой позиции человек может попасть на множество других. Поэтому заранее невозможно подготовить человека к деятельности во всех значимых группах; в результате он сначала попадает в какую-либо группу, а затем начинает к ней адаптироваться (социализироваться).

Ключевые слова: мобильность, социальная, общество, метафора, движение, теория, практика, метод, возможность, изменение, определение, глобальный, кочевник, мигрант.

Zokirjon Muminov

Doctor of Philosophy (PhD) in sociology.
Director of the Center for R and ATMTSES
at Namangan State University
e-mail: zokir_odiliy@mail.ru

MODERN SOCIOLOGY: MOBILITY IN SOCIAL CHANGES

ANNOTATION

The topic of mobility occupies a special place in modern sociology. It is also connected with other humanities that are part of the interdisciplinary “core” of sociology, but when we talk about mobility, to varying degrees. Social mobility is at the center of debates about social change, its causes and consequences. Social changes, regardless of their nature, always lead to new streams of social mobility.

Considering mobility as the degree of change and participation of people and things in modern society, we have identified that social mobility is probabilistic in nature in modern society - from each starting position a person can get to many others. Therefore, it is impossible to prepare a person in advance for activities in all significant groups; as a result, he first finds himself in a group and then begins to adapt (socialize) to it.

Key words: mobility, social, society, metaphor, movement, theory, practice, method, opportunity, change, definition, global, nomad, migrant.

KIRISH.

Tarixdan ma'lumki jamiyatdagi o'zgarishlar salbiy oqibatlarga olib kelgan. Ko'plab hodisalar qisqa yoki uzoq muddatlarda ijobiy o'zgarishini A.Prjevorskiy – “Ijtimoiy statikani yengish uchun eski tuzilmalarni buzmasdan, odatiy ijtimoiy munosabatlardan voz kechmasdan mumkin emas, biroq urf-odatlar ya xalqlar madaniyatida o'rnatilgan an'analardan voz kechish uchun uzoq o'n yillar va hatto asrlar kerak”, deb hisoblaydi[1,208-b]. Bu odatda og'riqli va ijtimoiy mobillik jarayonida aholining aksariyati uchun yoqimsiz oqibatlarni qo'zg'atadigan xarakterga ega. Biroq, bir muncha vaqt o'tgach, jamiyat yangi institutlarni shakllantiradi, yangi jamiyatga ko'proq mos keladigan yangi amaliyotlar tug'iladi, iqtisodiyotda salbiy tendentsiya ijobiy bilan almashadi. Prjevorskiy o'ziga xos xususiyatga e'tibor qaratdi: Sharqiy Evropada tub islohotlar jarayonida o'zini namoyon qildi, islohotlar qanchalik qattiqroq o'tkazilsa, shunchalik tez “remissiya” davri boshlandi hamda tezroq yangi hosil bo'lgan progressiv amaliyotlarga almashdi. Ayni paytda, Prjevorskiy aynan qattiq “zarba” variantini islohotlarga turtki berishi to'g'risida maslahat berishdan uzoqda edi. Har bir holatda, u individual vaziyatni ko'rib chiqish turli omillarni hisobga olgan holda islohot jarayonini murakkablashtiradi yoki tezlashtiradi deb hisoblagan.

Jamiyat holatini tashxis qiluvchi ko'rsatkichlarning umumiy yig'indisi, mobillik oqimlari bilan chambarchas bog'liq [2, – B.23]. Xususan, 1990-yillarning boshlarida Sobiq Sovet Ittifoqi parchalangandan so'ng ijtimoiy - iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish dolzarb masala sifatida namoyon bo'ldi. O'sha davrda aholining aksariyat qismining kundalik hayoti keskin pasaydi, ishsizlik ortdi, yuqori malakaga ega ishchilarning yangi paydo bo'lgan bozor sharoitida ish topa olmaganligi sababli “ijtimoiy notinchlik” ko'lami kengaydi.

Mamalakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni bozor sharoitlariga qarab siyosat yuritish o'z navbatida mobillik oqimlarining keskin o'zgarishiga olib keldi.

METODOLOGIYA.

O'tgan asrning 90-yillarida tug'ilishning kamayishi, o'limning "yosharishi", ichkilikbozlik, zo'ravonlik va o'z joniga qasd qilishning ko'payishi kuzatildi. Mobillik - va bu ishonarli faktlar bilan tasdiqlangan - bir vaqtning o'zida tarixga kiritilgan amalga oshirilayotgan siyosatning oqibati va oldindan aytib bo'lmaydigan, ko'pincha salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib keladigan omil sifatida ko'rishimiz mumkin.

Agar yuqoridagilarni hisobga olsak, ko'lam yanada murakkablashadi hamda ko'p hollarda chuqur ijtimoiy o'zgarishlar hayotning turli sohalarida turlicha ta'sir ko'rsatadi. Aksariyat aholi hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan o'zgarishlar faol ozchilik uchun ham yangi istiqbollarni ochishi mumkin. Bu ta'sir 1990-yillarda keng kuzatilgan. Aholining katta qismi islohotlarning salbiy oqibatlarini boshdan kechirsada, jarayonda faol shaxslar ochilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalandi, tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun yangi erkinliklardan foydalangan holda ularning turmush darajasi bu davrga kelib ilgari hech qachon ko'rilmagan darajaga ko'tarildi. Aholining ushbu toifasi uchun islohotlar ne'mat bo'ldi va ular uchun mobillik vektori qat'iy ko'rsatkichlar bo'yicha "yuqoriladi".

ASOSIY QISM.

Mobillik tushunchasini jamiyatga keng ma'nodagi ta'siri zamonaviy jamiyatni tahlil qilish istiqbollari ochib berdi. Bu yangi imkoniyatlardan to'liq foydalanganlardan biri ingliz sotsiologi J. Urri bo'lib, u yangi - "zamonaviy jamiyatlar - har xil turdagi mobillik uchun ochiqlik" degan da'vatni e'lon qildi [3].

"Mobillik" tushunchasi Urri tomonidan qo'llanilganligi tasodif emas. Hozirgi kunda mobillikning ortishi bilan Imkoniyatlarning rivojlanishida turli xil harakatlar bir-biriga bog'lanib, hayot dunyosini yanada rang-barang va mobil qiladi: "Mobillik haqidagi adabiyotlarning aksariyati, jamiyatni tekis sirt deb qaragan va mintaqa, shahar, muayyan joyning ijtimoiy toifalari, jinsi va etnik toifalari bilan geografik kesishmalarini kashf qila olmadi". Hozirgi migratsiya sotsiologiyasi juda tor mavzu va bu muammoni hal qilish uchun foydali bo'lmasligi mumkin.

Jamiyatdagi odamlar oqimini ko'rib, ayniqsa undan tashqarida va bu oqimlar turli istaklar bilan qanday bog'liqligini ko'rish mumkin - ishga kirish, uy-joyni yaxshilash istagi, bo'sh vaqtni diversifikatsiya qilish, imonli bo'lish, oilaviy munosabatlarni yaxshilash, huquqiy imtiyozlar olish, boshpana so'rash va hokazo. Bundan tashqari, nafaqat odamlar mobilligi, balki shunday "ob'ektlar" mobilligini e'tiborga olish lozim bo'ladi. So'nggi tadqiqotlardan ko'rinadiki nafaqat "sotsiologiya ob'ektlari"ni kengaytirish balki, jamiyat chegaralarini kesib o'tadigan va inson bilan birlashadigan turli xil ob'ektlar oqimini kengaytirish kerak, bunda oqimlar katta farq qilishi mumkin. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mobillik ushbu syujetga bag'ishlangan adabiyotda taklif qilinganidek, vertikal o'lchovda emas, asosan gorizonttal o'lchovda sodir bo'ladi [4, – B.255].

J.Urrining fikricha, mobillikga yangicha yondashuv yangi metodologiya – yangi nazariya va ommaviy harakatlarni aniqlashning yangi usullariga muhtoj. Yangi usulni izlashda ommaviy tushunchadagi turli vaziyatlarni tasvirlaydigan metafora[5]lar muhim yordam berishi mumkin. Yangi metaforada tarmoq aloqalariga, inson oqimlari va sayohatlariga qaratilgan J.Urri mavjud mobillik nazariyasiga kiritilgan terminologiya bilan tavsiflab bo'lmaydigan global hodisalarni kuzatadi. Metafora mavjud tahlil paradigmasidan tashqariga chiqadi va ma'lum bir jamiyat chegaralaridan tashqarida nima borligini, xususan, turli jamiyatlar chegarasida va jamiyatdan yuqorida joylashgan faqat globalistik nuqtai nazardan tavsiflanishi mumkin bo'lgan makonda nima borligini ko'rishga yordam beradi.

Zamonaviy dunyoda, masalan, "ko'chmanchi" atamasi o'zining avvalgi ahamiyatiga qaytdi. "Ko'chmanchi"ni migrant bilan tenglashtirib bo'lmaydi, chunki "ko'chmanchi"da hududiyalashtirish, bir joyda barqaror hayot shakllarini egallash istagi yo'q. Ushbu metafora ortida turgan hodisa ko'plab sotsiologlar tomonidan ijtimoiy innovatsiyalarni qidirayotganlar tomonidan qayd etilgan.

Z. Bauman nuqtai nazaridan, "ko'chmanchi" atamasi to'liq to'g'ri emas, balki u atama ta'rifni chalg'itadi deb hisoblaydi. "Geografik jihatdan mustaqil" sub'ekt "flaner" yoki "rejalashtiruvchi" deb ta'riflangan va uni motorsiz samolyotga o'xshatilgan [6]. Haqiqiy ko'chmanchilar qat'iy belgilangan yo'nalishlar bo'yicha harakatlanishlari bilan farqlanadi. Zamonaviy "ko'chmanchi"ga kelsak,

yoʻnalishlar uning boshida oʻz-oʻzidan paydo boʻladi va madaniy aniqlik mantigʻidan koʻra koʻproq “ildizpoya” mantigʻiga boʻysunadi. “Ildizpoya” deganda harakat yoʻllarining tarmoq tuzilishi tushuniladi va uni Urri butun tanani qamrab oluvchi, lekin birorta joyda oʻziga xos konsentratsiyaga ega boʻlmagan qon aylanish tizimiga oʻxshatadi.

Yangi mobillikni tavsiflovchi metaforaning ikkinchi misoli “global” [7] tushunchasidir. “Jamiyat”dan farqli ravishda siyosatchilarning “global” dunyo haqida gapiradiganlari nimani anglatadi? Birinchidan, “global” maʼlum bir mintaqa bilan aloqasi yoʻq, u sayyoramizning butun yuzasini istisnosiz qoplaydi. Ikkinchidan, u turli jamiyatlarda yashovchi odamlarni bir-biriga bogʻlaydigan tarmoqlarda oʻz asosini topadi. Uchinchidan, yangi dunyoning texnologik mukammalligi, yangi texnologiyalar tufayli mumkin boʻlgan aloqalarning “nanosekundligi” global miqyosda namoyon boʻladi. “Global” yangi landshaftlarni - “skeyplarni” [8] yaratadi, ularda odamlar harakatlanadi. Bu “koʻchalar” jamiyatdan yuqori boʻlib, yangi kommunikatsiyalar va yangi media tomonidan yaratiladi. Zamonaviy dunyoda “koʻchmanchi” Nyu-Yorkda yashashi va London yoki Moskvada ishlashi, Xitoy kurortlarida dam olishi, hududiy maʼlumotnomasi boʻlmagan kutubxonalarda maʼlumotlar bazasi toʻplashi mumkin. Barcha holatlarda harakat nafaqat mumkin, balki millionlab odamlar tomonidan zamonaviy aloqa vositalari – yoʻl tarmoqlari, aviakompaniyalar, Internet va mobil aloqa vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Dunyoning yangi holati tushuniladigan “metaforalar” yangi voqelikka koʻnikishga va u bilan faol shugʻullanishga yordam beradi.

Albatta bu hayratlanarli, dunyoning tobora koʻproq yangi texnologiyalarni oʻzlashtirib olishi natijasida ochilayotgan ulkan istiqbollarni koʻramiz. Yangi voqelikni eski va yangi “metaforalar” bilan kodlash, garchi u baʼzi, inqilobiy oʻzgarishlarga koʻnikishga yordam bersada, lekin bu yangi olamda eski dunyodan meros boʻlib qolgan va nafaqat yangi dunyoda boʻlgan ziddiyatlarni bartaraf etmaydi, balki davom etadi hamda yomonlashdi.

Bunda birinchi va asosiy savol quyidagicha boʻladi: mobillik tadqiqotlarida anʼanaviy ravishda qoʻllaniladigan mobillikka koordinatali yondashuv haqiqatdan ham eskirganmi? Buning uchun yangi dunyo metaforasi kundalik hayotga va unga tartib keltiradigan ierarxiyalarga qanchalik chuqur kirib borganligini aniqlash kerak. Darhaqiqat, “yangi dunyo” mobillik haqidagi mavjud gʻoyalarga yangi oʻlchamlarni qoʻshadi. Agar ilgari talabalar oʻz vatanlarida oʻz mutaxassisliklari boʻyicha ishlash haqida oʻylashgan boʻlsa, hozir kunda mehnat bozori taklif qila oladigan kasblarning moliyaviy ragʻbati oʻta pastligi sababli talabalarning elitasi doimiy ishlash hamda yashash uchun chet elga ketishni rejalashtirsa va yana bir qismi chet elda ishlash istiqbolli boʻlgani uchun bunday imkoniyatni unumli foydalanishni koʻzlayotgani tadqiqotlarda oʻz aksini topmoqda.

Ijtimoiy tuzilmalarning zaiflashuvi va global gʻalaba haqida gapirganda, bu tendentsiyalar haqiqatan ham qaytarib boʻlmaydiganmi yoki jamiyat yangi dunyo keltirib chiqaradigan muammolar va kutilmagan oqibatlarga javoban koʻp narsalarni qayta tiklay oladimi, shuni bilish muhimdir. Soʻnggi oʻn yillik tajribasi shuni koʻrsatadiki, ijtimoiy nazoratning zaiflashishi va ijtimoiy ierarxiyalarning yoʻq boʻlib ketishi haqidagi xulosaga kelish hato.

Oxirgi voqealar va eng avvalo, Yevropadagi migratsiya inqirozi “koʻchmanchilar” aslida maʼlum hudud va tuzilmalar bilan eng yaqin rishtalar ekanligini, ijtimoiy tuzilmalarning barqarorligi, agar ular tebrangan boʻlsa, ozgina darajada ekanligini koʻrsatdi [9, – B.78]. Umuman olganda, globallashuv barbod boʻldi va uning tarafdorlari tasavvur qilgan yangi dunyo jozibasiz hamda sarobga aylandi.

Globallik tarafdorlari sotsiologlar tomonidan taqdim etilgan futuristik rasmda turli olamlar - yangi texnologiyalar va ular bilan bogʻliq yangi imkoniyatlardan foydalanadigan "oltin milliardlar" dunyosi va ularning koʻpchiligi oʻrtasida arxaik voqelik sifatida farq yoʻq, imkoniyatlar cheklangan va kim uchun "masofadagi harakat" natijasida agar biror narsa oʻzgarsa, u faqat yuzaki boʻlib, yangi shaklni taklif qilsada, mazmun oʻzgarmasligi asoslab berildi.

Mobillik, avvaldan vertikal oʻlchovga ega boʻlib, bu ijtimoiy institutlarda taʼlim tizimi faoliyati tufayli sodir boʻladi. Albatta, mavjud institutlarni chetlab oʻtib harakat qilish mumkin, ammo bu holda muvaffaqiyatga erishib boʻlmaydi, chunki har qanday mobillik aktida qonuniylashtirish

amaliyoti eng muhim rol o'ynagan. Umuman olganda, hatto iste'dod ham tabiiy xususiyat emas, balki jamiyat tomonidan tan olingan va o'rtacha qiymatlar farqidir.

T.Kun, I.Lakatos asarlari tufayli zamonaviy fan g'oyalari rivojlanishi odatda tadqiqotchilar jamoasida rivojlanayotgan ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Eski ilmiy paradigmalar (Kun so'zlari bilan aytganda) [10, – B. 310] yoki dasturlar (Lakatos so'zlari) [11] yangilaridan oldin orqaga chekinadi, chunki dastlab zamonaviy fanning chekkasida joylashgan yangi nazariyalar ilmiy aks ettirish makonini egallab, tobora ko'payib borayotgan fanlarni topmoqda. Boshqa ilmiy fanlardan farqli olaroq, sotsiologiyada tahlilning yangi paradigmalari kamdan-kam hollarda eski g'oyalarni almashtiradi. Zamonaviylik haqidagi sotsiologik fikrlashda fan klassiklari – Emil Dyurkgeym, Maks Veber, Georg Simmel, Pitirim Sorokinlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar hozirgacha qo'llanilmoqda. Bu zamonaviy sotsiologiya yangi g'oyalarning etishmasligidan aziyat chekadi degani emas. Aksincha, ba'zi sotsiologlarning fikricha, nazariyalashtirish ijtimoiy fan sohasini mayda bo'laklarga ajratib tashlaydigan ortiqcha o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Ijtimoiy mobillik nazariyasida eski va yangi g'oyalar bir-birini to'ldiradi. Sorokin bergan mobillikning kengaytirilgan ta'rifi qaysidir ma'noda uni torroq "sinfiy" tushunishga yo'l ochdi, bu esa zamonaviy jamiyat tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlarni birinchi o'ringa olib chiqish, ijtimoiy tanlash institutlari faoliyatidagi uzluksizlik va o'zgaruvchanlik nisbatni topish imkonini berdi [12, – B.588].

Biroq, aks ettiruvchi zamonaviylik davriga kirgan zamonaviy jamiyat ilgari bo'ysunuvchi deb hisoblangan madaniyat o'lchamidagi siljishlarning yangi haqiqatida namoyon bo'ladigan kengaytirilgan ta'rifni muomalaga qaytarishni talab qildi. Tushuntirishning isbotlangan modellari butunlay rad etilmagan, sinfiy munosabatlar hali ham ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarini muvaffaqiyatli tushuntiradi, lekin ko'payish jarayoni sodir bo'lgan sharoitlarda katta o'zgarishlar yuz berdi. "Refleksiv mobillik" ga olib kelgan individuallashtirish mobillik kontekstini sezilarli darajada o'zgartirib, yangi tadqiqot intrigasini yaratdi va uni yanada chuqur o'rganishni talab qildi.

Migrasiya jarayonlarida faol ishtirok etadigan ijtimoiy mobil shaxsning jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi [14, – B.134]. Ijtimoiy munosabatlarda intellektual salohiyati bilan ajralib turuvchi kishilarning jamoatchilik fikrlarini shakllantiruvchi salohiyatidan unumli foydalanish ijtimoiy munosabatlarda samarali natijalar beradi. Shaxsiy faollik yondashuvida shaxs mobillik xususiyatlarini ajratib ko'rsatishga yordam beradigan, uning ijtimoiy mobilligini rivojlantirishga xizmat qiladigan, ijtimoiy jarayonni tashkil etishning faol usul va shakllarini aniqlash faoliyat hamda o'z-o'zini rivojlantirishga hissa qo'shishni anglatadi. Ushbu metodologik yondashuv shaxs ijtimoiy mobilligini rivojlantirishda individual jihatlar asosini belgilaydi.

Mehnat bozoridagi mavjud vaziyat, mobil shaxsning malakasiga qo'yiladigan talablarning ortishi, ijtimoiy faoliyatni standartlashtirish va faollashtirish fenomeni shaxsiy ijtimoiy mobillik kabi sifatlarni shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Sotsiologik adabiyotlarda mutaxassisning vertikal va gorizontol ijtimoiy mobilligi ajratib ko'rsatiladi. Mehnat bozori qonuniyatlari va migrasiya bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar (ayniqsa, uning ijtimoiy-ruhiy, ma'naviy-madaniy, g'oyaviy-mafkuraviy ko'rsatkichlari) haqidagi statistik-sotsiologik ma'lumotlar sof matematik hisob-kitoblardan, sonlarning oddiy korrelyasion aloqadorliklaridan iborat bo'lmasdan, balki mantiqiy operatsiyalarning sub'ektiv ko'rinishidir [13, – B.136].

Sotsial-iqtisodiy jihatdan paradigmalar o'zgarishlar parametrlari, migrasion ijtimoiy mobillikning bozor munosabatlari sharoitida xarakterini ko'rsatuvchi determinat omil sifatida izohlash mumkin. Shu sababli, urbanizasiya jarayonlarida ishlab chiqarish va maishiy xizmat ko'rsatish sohalari hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zamonaviy infratuzilmasi sifat ko'rsatkichlariga olib keladi. Ijtimoiy mobillik jarayonida inson tafakkuri muayyan darajada faollashish holatida bo'lib, bu kishining yangi bilim, intellektual ko'nikma va malakalarni yuqori tezlikda o'zlashtirishini ta'minlaydi. Ijtimoiy salohiyat bo'yicha talab darajasidagi malakaga egalik ishchi-xodimlar faoliyati samaradorligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Ijtimoiy tendensiya, ya'ni millatimizning 3 ming yillik tarixida yuz bermagan sotsial jarayon, qaysiki aqliy intellektual siyosiy migrasiya emas, balki jismoniy mehnat qilishga yo'naltirilgan migrasiya mohiyatining harakatlantiruvchi kuchlari siyosiy, ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy sabablari

aniq faktlar, konkret sotsiologik tadqiqot natijalari va o'rganilgan jamoatchilik fikri orqali isbotlab beriladi. Migrasiya insoniyat tarixida doimiy va muayyan ta'sir imkoniyatlariga ega ijtimoiy hodisalardan biri bo'lib kelgan. U dunyo iqtisodi o'sishiga, davlat va jamiyatlar rivojlanishiga, madaniyat va sivilizasiyalar o'zgarishiga, ularning transformasiyasiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy mobillik va migrasiyani tartibga solish, nazorat qilish hamda boshqarishning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy mexanizmlarini, mutasaddi institutlari faoliyati va ma'naviy-axloqiy normalarini tizimli takomillashtirish lozim. Ijtimoiy mobillikning zonal, regional va global darajada urbanizasiya va migrasiya jarayonlari intensivlashuvi mahalliy, milliy, hududiy va umuminsoniy ob'ektiv shart-sharoitlar, sub'ektiv omillarni muvofiqlashtirishi zarur.

XULOSA.

Aholining ijtimoiy-demografik strukturasi differensial yondashib, ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy-kasbiy mobilligini ma'naviy-ruhiy tayyorlashning zamonaviy psixologik, pedagogik, didaktik-innovation echimlarini topish "texnologiyasi"ni yaratish kerak. Jamiyat a'zolarining ijtimoiy mobilligi darajasi, maqomi, ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarining o'zgarishi paradigmal ijtimoiy faoliyat, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish sohalarini diversifikasiyalashtirishi lozim.

Ijtimoiy mobillik nuqtai nazaridan navbatdagi muhim qadam sudlarda adolat ustuvorligi va mehnat qonunchiligiga rioya etilishidir. Migrasiya jarayonlarida inson omilining sotsial-iqtisodiy determinizm sifatida mobillikning tarkibiy tuzilmasini diversifikasiya qilish va geografiasini kengaytirish, zamonaviy migrasiya talablari asosida yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarur. Migrasiyaning ikki jihati harakatlanish va fuqarolik ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi: yangi joyga ko'chib o'tish mumkin, lekin jamiyat a'zoliciga asoslangan xizmat va imtiyozlardan foydalanishda cheklovlar yuzaga chiqishi mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga olib keluvchi migrasiya mobillik mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklif xarakterini belgilovchi eng muhim omillardan bo'lib, u urbanizasiya jarayonlarida, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yangi ish joylari yaratish va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sifat o'zgarishlariga asos bo'ladi.

Mazkur nazariy-metodologik xulosalar ijtimoiy mobillikning mazmun-mohiyati va xususiyatlarini migrasiya fenomeni genezisi, retrospektiv asoslari va tarixiy rivojlanish bosqichlarini, tajribalarini umumlashtirish orqali aniqlash mumkinligini ko'rsatadi. Chunki, migrasiya jarayonida inson ijtimoiy mobilligi, nisbatan mukammal tarzda, uning mazmun-mohiyati, funksional ahamiyati, istiqbolini kompleks-tizimli namoyon qilish imkoniyati rivojlanishiga olib keladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Адам Пржеворски. Демократия и рынок; Политические и экономические реформы в Восточной Европе и Латинской Америке. Нью-Йорк: Издательство Кембриджского университета. 1991 г. п. 208 . ISBN 0-521-42335-X.
2. Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi: Monografiya.-Toshkent: Yoshlar Nashriyot uyi, 2020. –23 b.
3. Урри Дж. Мобильности. – М.: Издательская и консалтинговая группа «Праксис», 2012.
4. John Urry. Mobilities, Networks, Geographies. Geography, Social Sciences. 2006. P-255.
5. Metafora (boshqa yunoncha μεταφορά "ko'chirish; majoziy ma'no", μετά "yuqori" + φερός "tashuvchi" sozidan) - o'xshashlik asosida bir ob'ekt yoki hodisani boshqasi bilan yashirin taqqoslash tushuniladi.
6. Бауман З. Глобализация: Последствия для человека и общества. - М.: Весь мир, 2004. - ISBN 5-7777-0303-8
7. Global – {lot. globus — shar} Yer yuziga oid, butun Yer sharini qamrab oluvchi ma'no bersada, bu odamlar, mavjudotlar, jihatlar yoki materiyaning aglomeratsiyasi yoki ixcham massasini bildiradi va - uchun qo'shimchasi bilan to'ldiriladi, bu "nisbatan" degan ma'noni anglatadi.Global - bu uning alohida qismlarini emas, balki butunlikni anglatuvchi sifat.
8. Skype (talaffuzi: skayp) - foydalanuvchilar bilan internet tarmog'i uzra aloqa o'rnatishga imkon beruvchi dasturiy ta'minot. Bu yerda ko'chma ma'noda ishlatilgan.

9. Parmanov F. Migratsiya, integratsiya, transformatsiya: monografiya - Toshkent: A. Navoiy nomidagi Milliy kutubxona. O‘zbekiston nashriyoti, 2020. 78b.
10. Т. Кун. Структура научных революций. М., 2009. — 310 с. — ISBN 978-5-17-059190-9.
11. И. Лакатос. Методология исследовательских программ (сборник). <https://www.livelib.ru/book/1000098110>
12. П. Сорокин. Социальная мобильность. – М.: Academia: LVS, 2005. – XX, 588 с. ISBN 5-87444-221-9
13. Z. Mo‘minov. Ichki migratsiya jarayonlarida kasbiy mobillikning hududiy xususiyatlari: monografiya. Namangan nashryot-matbaa uyi. -2023. 136-b.
14. Сеитов А.П. Проблема климатической миграции в Узбекистане: социологический аспект. Climate migration in Central Asia: challenges and solutions [Текст]: сборник материалов конференции. – Ташкент: Baktria press. 2023 – 288 с.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 6, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000